




*Angren shahar XTBga qarashli
20-umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Ismatullayeva Nargiza Abdukarimovnaning
matematika fanidan
“Ko'paytirish va bo'lish”
mavzusida bir soatlik*

OCHIQ DARS ISHLANMASI





MAVZU: Ko'paytirish va bo'lish

- **Ta'limiy:** O'quvchilarni ko'paytirish va bo'lish amallari orasidagi munosabat haqidagi bilimlarni mustahkamlash. Ikki xonali va uch xonali sonlarni bir xonali songa ko'paytirish va bo'lishga oid misol va masalalar yechishni orgatish. **TK1:** fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish; **TK2:** axborotlarni statistik ma'lumotlar ko'rinishlarning bir turidan boshqa ko'rinishga o'tkaza olish; **FK1:** ikki ayirma bo'yicha noma'lum sonni topishga doir masalalarni yecha olish.
- **Tarbiyaviy:** O'quvchilarni kattalarni hurmat qilishga, bobo-buvilarimizni, ustozlarimizni e'zozlashga, ularni pand nasihatlariga amal qilishlikni singdirish. **TK4:** atrofdagilar bilan o'zaro muloqot chog'ida odob-axloq qoidalariga rioya qilish va guruhda ishlash.
- **Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarning tezkorlik, topqirlik qobiliyatlarini o'stirish, misol va masala yechish ko'nikmalarini rivojlantirish. **FK2:** o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qila olish.
- **Dars turi:** Mustahkamlovchi
Dars uslubi: Tushuntirish, "O'qiymiz va tekshiramiz", "Assesment", "Charxpalak" metodlari, PISA testi, mustaqil ish, ta'limiy o'yinlari
- **Dars jihozi:** Multimedia ilovalar, AKT, slaydlar, tarqatmalar, mavzuga mos, ko'rgazmalar

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism

-salomlashish

-navbatchi axborotini tinglash

Biz kimmiz:

Buyuklar avlodimiz,

Kelajak

iftixorimiz.

Bizning shior:

Matematika fanlar ichra shoh,

Uning sirlaridan bo'lingiz ogoh.

MATEMATIKA fani bizga nima deydi?

M-asala,

mashq

yechish,

A-

slida

eng

qiziq

ish.

T-

englamani

ey

o'rtoq,

E-

chmoqlik

zo'r

ishtiyoq.

M-atematika

fani

A-

joyibot

gulshani,

T-

afakkurni

charxlaydi,



I- stiqbolga chorlaydi.
K- o'paytir, qo'sh, baxtingni
A- yirma hech aqlingni

O'quvchilar qoidasini eslab olamiz.

- to'g'ri o'tir!
- tingla yoz!
- faol bo'l, darsda biroz!
- vaqtni bekor o'tkazma!
- bilim ol!
- kechga qolma!
- bu darsning qoidasi!
- O'quvchilar foydasi!

Vatanimiz haqida nimalarni bilasiz?

- Bizning Vatanimiz- O'zbekiston!
- Davlatimizni Prezidenti-Shavkat Miziyoiev Miromonovich
- O'zbekistonning poytaxti-Toshkent shahri.
- Yurtimizning har bir go'shasi go'zal va ko'rkam.
- 1-sentabr kuni Mustaqilligimizning 30 yilligini keng nishonladik.
- Yurtimiz tinch va osiyishta.
- Yurtimizda turli millat vakillari ahil va inoq yashaydilar.
- Har bir fasli yurtimizga o'zgacha chiroy baxsh etadi.
- Nargiza Abdulkarimovna-birinchi ustozimiz- Biz ustozimizni juda yaxshi ko'ramiz.
- ***Vatan haqida she'rlar va maqollar so'raladi.***

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

- Uy vazifasini tekshirish uchun "O'qiyamiz va tekshiramiz" metodidan foydalanamiz;
- O'quvchilar navbat bilan bajarib kelgan masala-misolarni birin-ketin o'qiydilar, boshqa o'quvchilar daftarlarini kuzatib boradilar;

7-misol. Amallarni bajaring:

$$\begin{array}{lll} 32 : 4 \cdot 3 = 23 & 50 : 5 \cdot 4 = 40 & 48 : 6 \cdot 3 = 24 \\ 27 : 3 \cdot 4 = 36 & 72 : 9 \cdot 7 = 56 & 64 : 8 \cdot 6 = 48 \end{array}$$

8-masala. Maktab bog'iga 38 ta atirgul, 160 ta lola o'tqazildi. So'ngra atirgul va lola soni qancha bo'lsa shuncha chinnigul ekildi. Jami qancha gul ko'chatlari ekilgan?

$$\text{Ye: } 38 + 160 = 198(\text{ta})$$

$$198 + 198 = 396(\text{ta}) \quad \text{J: } 396 \text{ ta gul ko'chati}$$

- ***Aylanma daftarlar almashtiriladi;***



- **Sana yoziladi**

Husnixat daqiqasi: 106 sonini yozish

- Sonni xona birliklari ko'rinishida yozamiz.

$$106=100+6$$

- **PISA testi o'tkaziladi**

III Yangi mavzu: Ko'paytirish va bo'lish

- **Ko'paytirish**

Bir xil qo'shiluvchilarni qo'shish ko'paytirish deyiladi. Nuqta () ko'paytirish belgisidir.

- **Bo'lish**

Narsalarni teng bo'lib qo'yish bo'lish deb ataladi. Ikki nuqta () - bo'lish belgisidir.

1-misol

$$48 + 8 \cdot 5 = \quad 7 \cdot 8 - 38 = \quad 63 : 7 + 8 \cdot 9 =$$

$$54 - 18 : 2 = \quad 27 : 3 + 74 = \quad 6 \cdot 8 - 72 : 8 =$$

2-misol

$$x \cdot 9 = 54 \quad 56 : x = 7 \quad 470 + x = 930$$

$$x = 54 : 9 \quad x = 56 : 7 \quad x = 930 - 470$$

$$x = 6 \quad x = 8 \quad x = 460$$

$$6 \cdot 9 = 54 \quad 56 : 8 = 7 \quad 470 + 460 = 930$$

$$54 = 54 \quad 7 = 7 \quad 930 = 930$$

Dam olish daqiqasi o'tkaziladi

Biz yozdik, yozdik, yozdik

Qo'llarimiz charchadi.

Endi birga turamiz,

Qo'lda qarsak chalamiz.

Oyoqlarni dupillatib,

Qo'llarimiz ochib- yopib,

Endi tez o'tiramiz,

Davomini yozamiz.



3-masala

To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 7 cm, eni 4 cm. To'g'ri to'rtburchakning tomonlari 8 cm ga kattalashtirilsa uning perimetri qancha bo'ladi?

$$a = 7 \text{ sm}$$

$$b = 4 \text{ sm}$$

$$a \text{ va } b - 8 \text{ sm kattalashtirilsa-? sm}$$

$$P = ? \text{ sm}$$

$$\text{Ye: } a = 7 + 8 = 15 \text{ (sm)}$$



$$b=4+8=12 \text{ (sm)}$$

$$P=(15+12)*2=54 \text{ (sm)}$$

$$J: P=54 \text{ sm}$$


IV. Yani mavzuni mustahkamlash

TEZKOR SAVOLLAR: o'qituvchi o'qib turadi, o'quvchilar savollarga og'zaki javob berishadi

- O'tloqda quyonlar berkinib o'tiribdi, faqat ularning 10 ta qulog'i ko'rinib turibdi. Quyonlar nechtaligini toping?
- Tarozi pallasida turna 2 oyog'i bilan turganda og'irligi 2 kilogramm chiqadi. Agar turna 1 oyoqda tursa uning og'irligi qancha?
- Qishloqda 4 kecha 4 kunduz to'xtamasdan qor yog'di. Qishloqda necha sutka qor yog'di?
- Bir odam shaharga ketayotgan edi, yo'lida uning 3ta tanishi qarshisidan chiqdi. Nechta odam shaharga bordi?
- Maratning 1 so'mlikdan iborat 100 so'm puli bor edi. O'quv- qurollari sotib olgan do'konga 97 so'm to'lashi kerak. Qaysi yo'l bilan pullarini tez hisoblasa bo'ladi?

4-masala

Rasm asosida masala tuzing:



Masalani tahlil qilamiz:

- 1) Masala nima haqida? Piyoz haqida nimalarni bilasiz?
- 2) Masalada nimalar ma'lum?
- 3) Nimalar noma'lum?
- 4) Nimani topish kerak?
- 5) Qisqa shart qanday tuziladi?
- 6) Masalani yechimi qanday yechiladi?
- 7) Tekshirish



5 ta yashikda-45 kg

2 ta yashikda -? kg


Ye: $45:5=9$ (kg)

$9*2=18$ (kg)


J: 2 ta yashikda 18 kg

5-misol

Katakdaagi sonlar yig'indisini topishning oson usullarini toping.



“Charxpalak” metoddan foydalanamiz



V. O'quvchilarni baholash

O'quvchilar darsdagi ishtirokiga ko'ra baholanadi va rag'batlantiriladi

VI. Uyga vazifa berish



15-sahifadagi 6-7-misolla